

PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH

Ilmiy rahbar; prof.(DSc) N.J.Abdullayeva

Botirova Odina Abdumutalib qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika magistranti

+998889739808

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy mas'uliyatni shakllantirish mavzusi yoritilgan. Maqolada pedagogik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari, ularning ta'lim jarayonidagi o' rni va kasbiy mas'uliyat bilan aloqasi tahlil qilinadi. Pedagogik kompetensiya — bu o'qituvchining pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, o'quvchilarni bilim bilan ta'minlash, ularga individual yondashuvni amalga oshirish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Abstract. This article explores the importance of developing pedagogical competencies as a means of enhancing professional responsibility in educators. It examines how the continuous improvement of teaching skills, including both theoretical knowledge and practical application, contributes to a higher standard of education and a more responsible approach to student development.

Аннотация. В данной статье рассматривается ключевая роль развития педагогических компетенций в повышении профессиональной ответственности педагогов. Анализируется, как непрерывное совершенствование преподавательских навыков — как теоретических знаний, так и их практического применения — способствует улучшению качества образования и формированию более ответственного, ориентированного на развитие учащихся подхода к обучению. Развитие рефлексивной практики и стремление к постоянному обучению позволяют педагогам более эффективно отвечать на меняющиеся требования образовательной среды и потребности студентов.

Kalit so'zlar: pedagogik kompetensiya, kasbiy mas'uliyat, pedagogik faoliyat, ta'lim, kompetentlik, zamonaviy texnologiya

Ключевые слова: Развитие педагогической компетентности как основы профессиональной ответственности; педагогическая деятельность как многогранный процесс, направленный на обучение и воспитание; современное образование, ориентированное на компетентностный подход; использование инновационных и цифровых технологий в образовательном процессе.

Keywords: pedagogical competence, professional responsibility, pedagogical activity, education, competence, modern technology.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining takomillashuvi har bir sohada bo’lganidek ta’lim sohasida ham yangicha zamonaviy yondashuvni talab qilmoqda. Bu borada esa, o’qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik kompetensiyalarni yaxshi egallashi bilan bir qatorda ularni doimiy rivojlantirib borish zaruriyati tug’iladi. Pedagogik kompetensiyalar-bu nafaqat bilim va ko’nikmalar majmuyi bo’libgina qolmay, o’qituvchining o’z faoliyatini samarali tashkil etishi hamdir. Aynan mana shu jihatlar pedagog shaxsida kasbiy mas’uliyatning shakllanishida muhim sanaladi.

Asosiy qism. Oliy ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida qator (2019 yil 8 oktabrdagi RQ-5847-son “O’zbekiston Respublikasi oliyta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to’g’risida” [1]. 2020 yil-27-fevraldagi RQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to’g’risida”gi) [2] qaror va farmonlar qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlarda kasbiy va pedagogik faoliyatga (vazifalar, kompetensiyalar) hamda o’qituvchining shaxsiga, o’qituvchi kasbiga qo’yiladigan talablar ifodalangan. Ana shunga bog’liq holda, o’qituvchining kengaytirilgan ta’lim muhiti sub’yektlari bilan ijtimoiy o’zaro aloqalarni o’rnatishga qaratilgan funksiyalari ayniqsa katta. Zamonaviy pedagogikamizda pedagogik kompetentli o’qituvchilik va murabbiylik faoliyatini sifatli va samarali tashkillashtirish eng muhim omil sanaladi. Bugungi kundagi, jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, kasbini chin dildan sevuvchi, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy sog’lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini o’z oldiga qo’yimoqda. Shu o’rinda savol tug’iladi – “Kompetentli pedagog” kim? Uni qanday takomillashtirishimiz mumkin? singari savollar tug’iladi. Shundan kelib chiqqan holda „kompetentlik“ va „kompetensiya“ tushunchalarini mohiyatini bilishimiz muhim hisoblanadi. „Kompetentlik“ tushunchasi pedagogning ma’lumoti, bilimi, qobiliyati, ko’nikmasi, salohiyati va ish tajribasini o’zida namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, uning ma’lum bir ish turini samarali bajarish qobiliyati deyishimiz mumkin [3].

“Kompetensiya” bilimlarning umumiyliigi va ularning insonlarda namoyon bo’lishini bildirsa, kompetentlik esa bu bilimlardan ish jarayonida foydalanish ni ya’ni amalda qo’llashni anglatadi.

Pedagogik kompetentlik bo’yicha o’zbek olimlaridan N. Muslimov, M. Mutalipova, M. Mirsolieva izlanishlar olib borganlar. Xorijda L. Vigotskiy, O. Abdullina, I. Ilin, Ye. Bondarevskaya, S. Antonenko, S. Nikitin, G. Muxametjanova, G. Solovev, D. Kar, M. Knoules, L. Lok va boshqalar kompetensiyaning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’rni hamda ahamiyati haqida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar [4].

Zamonaviy ta’lim jarayonida o’qituvchi faqatgina bilim berib qolmasdan, balki axloqiy-ruxiy tarbiyaga hamda ijtimoiy faollikka yo’naltiruvchi yetakchi shaxs hamdir. Shu nuqtai nazar bilan qaraganda pedagogning kasbiy mahorati bilan bir

qatorda, pedagogik kompetensiyalarining doimiy ravishda rivojlanib borishi uning kasbiy mas'uliyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Professional pedagog o'z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, albatta uning pedagogik mahorati bo'ladi. U barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib boradi. U albatta, zamonaviy metod va usullarni muntazam o'rganib boradi, pedagogik kasbiy kompetensiyaga ega bo'ladi. Chunki shu hislatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'zi bilgan, bilmagan holda haqiqiy kompetensiya egasi bo'ladi. Mehnat qilish madaniyatigagina emas, balki yuksak umuminsoniy madaniyatlar: odob-axloq, qadriyatlar va obro'-e'tibor egasi bo'lishi o'z-o'zidan ayon. Shu bois ham, talabalarning kasbiy kompetensiya egasi bo'lib yetishishlari uchun Milliy dasturimizda uch bosqichli tizim bo'yicha ta'lim-tarbiya beriladi. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi mezonlari haqida

olimlarimiz olib borayotgan izlanishlar hali yetarli emasligi ko'zga tashlanib turibdi [5].

Pedagogik kompetensiya nafaqat o'qituvchining fanga oid bilimlari, pedagogik metodlari, kommunikativ ko'nikmalari, axloqiy pozitsiyasi va innovatsion yondashuvlarida namoyon bo'ladi. Aynan shu kompetensiyalarni shakllantirish orqali pedagog:

1. o'z faoliyatiga kritik baho bera oladi
2. zamonaviy dars usullarini amaliyotda qo'llay oladi
3. o'quvchilar bilan kommunikativ aloqalarni samarali o'rnatadi
4. ta'lim sifatini oshirishda tashabbus ko'rsatadi

Kasbiy mas'uliyat, o'z navbatida, pedagogning shaxsiy faoliyatiga nisbatan ijtimoiy va axloqiy munosabatini bildiradi. Kompetensiyalarning rivojlanishi mana shu mas'uliyatni oshiradi, pedagogni o'z ustida ishlashga undaydi, doimiy izlanishlar olib borishga yo'naltiradi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga e'tibor qaratgan o'qituvchilar darslarida interaktiv ta'lim metodlaridan foydalana oladi, o'quvchilar bilan individual yondashuv asosida mashg'ulotlar olib boradi hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etadi. Natijada, nafaqat ta'limning samaradorligi oshadi, balki o'quvchi yoki talabalarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik, mas'uliyat hamda intilish tarkib topadi.

Pedagogik kompetensiyalar quyidagilarni o'z tarkibiga oladi:

Fanga oid kompetensiya, didaktik kompetensiya, psixologik-pedagogik kompetensiya, axloqiy-kommunikativ kompetensiya, innovatsion kompetensiya

Kasbiy mas'uliyat — bu pedagogning o'z ishiga nisbatan yuqori darajadagi shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni his etishi, o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi har bir qaror va amalda bo'lgan harakatlarni ongli ravishda bajarishdir. Pedagogning kasbiy mas'uliyati uning kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liq. Pedagogik

kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'qituvchi kasbiy mas'uliyatni yanada chuqurroq his qilishi va uni amaliyotda samarali tarzda qo'llay oladi. Kasbiy mas'uliyatning shakllanishi o'qituvchining ta'lim jarayonidagi o'rni va roli bilan bog'liq bo'lib, quyidagi jihatlar asosida rivojlanadi:

O'qituvchining Ta'lim Jarayonidagi O'rni

Pedagogning ta'lim jarayonidagi o'rni uning kasbiy mas'uliyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi o'zining professional roli va vazifalarini anglab, o'quvchilarni faqat bilim bilan emas, balki axloqiy qadriyatlar, jamoada ishlash, insoniy munosabatlarni rivojlantirishga ham yo'naltirishi kerak. O'qituvchi, shuningdek, o'z ishiga mas'uliyatli yondashishi va har bir qarorni ongli ravishda qabul qilishi lozim.

Xulosa. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi ta'lim jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'inidir. Zamonaviy ta'lim sohasida yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar, globallashuv, texnologik taraqqiyot hamda jamiyat ehtiyojlarining doimiy ortib borayotgani pedagogdan nafaqat o'z mutaxassislik sohasini puxta bilishni, balki keng ko'lamli pedagogik, psixologik, kommunikativ, axloqiy va innovatsion kompetensiyalarga ega bo'lishni talab qilmoqda. Xuddi mana shu kompetensiyalar orqali o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida yuqori mas'uliyatni his eta boshlaydi va uni ongli ravishda amalga oshira oladi.

Kasbiy mas'uliyat — bu faqatgina xizmat vazifasini bajarish emas, balki yosh avlodni shakllantirish, ularning ijtimoiylashuvi, mustaqil fikrlashi, axloqiy qarorlar qabul qila olishiga ta'sir qilishdir. Shunday ekan, pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'qituvchi o'zining kasbiy o'sishini ta'minlashi, shaxsiy axloqiy sifatlari bilan o'quvchilariga ijobiy ta'sir ko'rsata olishi, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi RF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsertsiyasini tasdiqlashtirish to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi RQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz

3. Oyturaxonovna I. S. et al. BO'LAJAK PEDAGOGLARDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2025. – T. 3. – №. 35. – C. 376-379.

4. Sodiqovna S. U. PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIK VA UNGA XOS SIFATLAR // ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2025. – T. 62. – №. 6. – C. 184-189.

5. Axmedova M. Pedagogik kompetentlik // T.: Nizomiy nomidagi TDRU. – 2016. – T. 84.